



## BAXSHICHILIK- MING YILLIK TARIX

Avazov Abdulla Turg'unovich

*Respublika baxshichilik san'ati markazi*

*xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi*

*Termiz Davlat Universiteti 3-bosqich talabasi*

Norboyev Umid Pardayevich

*Respublika baxshichilik san'ati markazi direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada baxshichilik san'atining bugungi kundagi ahamiyati, unga berilayotgan e'tibor, ustoz-shogird an'analari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Madaniy meros, doston, baxshichilik, isloh, folklor, ijro.

Baxshi xalq turmushi va madaniyatini, o'zi yashab turgan yurt tarixini va biror cholg'u chalishni bilishi, xonandalik san'atini puxta egallagan bo'lishi kerak. Tinglovchilarni rom etuvchi ohang topa bilish, dostonni jozibali va qiziqarli qilib aytish doston aytishning asosiy talablaridandir. Baxshi ijrochiligi individual san'at turi bo'lib, asrlardan-asrlarga an'anaviy "ustoz-shogird" uslubida ustozdan shogirdga yetkazib kelingan. Har bir baxshining so'z san'ati ham, soz san'ati ham bitta ustoz rahbarligida shakllangan. Ustoz o'zining ustozidan qaysi dostonlarni o'rgangan bo'lsa, shu dostonlarni, qaysi kuylarni o'rgangan bo'lsa, shu kuylarni o'z shogirlariga o'rgatgan. Juda iqtidorli baxshilar o'z ustozlaridan o'rgangan dostonlari qatoriga o'zlari ijod qilgan dostonlarni va eski dostonlarning yangi talqinlarini qo'shib borish orqali o'z repertuarlarini boyitib borishgan. Bundan tashqari, baxshilar xalq tilining jonli shakllaridan, so'z o'yinlaridan, maqol va iboralardan unumli foydalanganlar. Yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida baxshichilik san'ati rivojlangan bo'lib, hozirgi kunda Bulung'ur, Qo'rg'on, Shaxrisabz, Qamay, Chiroqchi, Dehqonobod, Sherobod, Boysun, Xorazm hamda Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud. Ular bir-biridan ijro usullari, repertuarlari bilan farq qiladi. Ma'lumki, xalq dostonlari baxshilar epik xotirasi asosida ustozdan-shogirdga og'zaki tarzda ijro qilingan yuksak badiiy namunalardir. Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi baxshilari ustoz-shogirdlik an'anasini davom ettirgan holda, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Kuntug'mish", "Xasanxon", "Avazxon", "Yozi bilan Zebo", "Yusuf Ahmad", "Malikai ayyor", "Gulixiramon", "Norguloy", "Shirin va Shakar" kabi dostonlarni ko'plab avlodlardan avlodga yetkazib xalqqa ma'naviy ozuqa berib kelganlar. Bilamizki, doston o'zbek xalqining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy – maishiy turmushi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Baxshichilik san'atida ustoz-shogirdlik an'analarida dostonlarni ijro etish farqlanadi. Doston kuylash, shogird yetishtirishda qat'iy tartib, qonun-qoidalarga, ustoz-shogirdlik an'analariga rioya qilingan. Baxshi repertuaridagi o'nlab dostonlar bo'lishi, bir dostonni turli ohang, nag'malarda ijro eta olishi mumkin. Epik ijod har bir xalqning badiiy tarixidir. Shunday



ekan, uning ijrochilari bo'lmish baxshilar ham millat tarixi, san'ati, madaniyatini ming yillar davomida asrab-avaylab kelayotgan, avlodan-avlodga yetkazayotgan, milliy madaniyat, tarix va falsafaga o'zining benazir ulushini qo'shib kelayotgan ulkan ijodkorlardir. Prezidentimizning 2019-yil 14-maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq Termiz shahrida Respublika baxshichilik san'ati markazi va uning huzuridagi Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishi bugungi kunda baxshichilik san'atini saqlab, uni asrab-avaylab va rivojlantirib, shu yo'lda ijod qilayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo'lgan baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san'timizdagi o'рни va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash borasida mamlakatimiz yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijodkor yoshlar safini yanada kengaytirish, yoshlar hayotida baxshichilik san'ati borasida ustoz-shogird an'alarini keng targ'ib etish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar va festivallar o'tkazib kelinmoqda. Respublikamizda 2000-yilda "Xalq baxshisi" unvoni tashkil etildi. Qolaversa 2001-yilda Boysun YUNESKO tomonidan "Insoniyat og'zaki va ma'naviy meros durdonasi" sifatida etirof etildi va 2002-yilda Boysunda "Boysun bahori" ochiq folklore festivali o'tkazila boshlandi. Ayniqsa, Xalqaro Baxshichilik san'ati festivalining o'tkazilishi, o'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalari asrab avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularinikuchaytirish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, madaniy ma'rifiy munosabatlar doirasida xalqaro miqyosda yanada kengaytirishning muhim omili bo'ldi. 2021-yil dekabr oyida Parijda bo'lib o'tgan YUNESKO nomoddiy merosini muhofaza qilish bo'yicha Hukumatlararo qo'mitaning XVI-sessiyasida YUNESKOning "Baxshichilik san'atini insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro'yxatiga kiritish" haqidagi taklifi yakdillik bilan tasdiqlandi. Muxtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev mazkur jarayonlar xususida: "Xalq og'zaki ijodining eng qadimgi turlaridan biri bo'lgan baxshichilik san'ati yuksak gumanizm g'oyalarini, tinchlik va do'stlik, adolat va haqiqat kabi ezgu fazilatlarni mahorat bilan tarannum etadi. Shu bois ham, baxshi, oqin va jirovlar azaldan xalq qalbining kuychilari, turli millat va elatlarni birlashtiradigan olijanob insonlar sifatida ardoqlab kelinadi. Men xalq ijodiyotini insoniyatning bolalik qo'shig'i, har qaysi milliy madaniyatning hatotbaxsh chashmasi deb bilaman. Bu qo'shiqlarni sof va bezavol holatda saqlash, hamisha mag'rur yangrashini ta'minlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaqaddas burchimizdir"- deya ta'kidlab o'tgani ham bejiz emas.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agar biz bu noyob san'atni saqlab qolish uchun barchamiz birgalikda harakat qilmasak, ertaga, afsuski, kech bo'ladi. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari Uchinchi Renessansga poydevor qo'yish masalasini ko'tarar ekan, bu yo'lda, eng avvalo, madaniy merosimizni ulug'lash, milliy an'alarimizni davom ettirishga e'tibor qaratdi. Bir so'z bilan aytganda, sohada bolib borilayotgan islohotlar ko'p asrlik tarixga ega madaniy merosimizni ilmiy o'rganish, qolaversa, dunyo miqyosida keng targ'ib qilish imkonini beradi. Chunki baxshichilik – ming yilliklar bilan yuzlashgan xalqano va



boqiy san`at. U insonga kerak ekanki, hamon yashamoqda. Baxshichilikning dunyo tamaddunidagi o`rni va ahamiyati bisyor ekanki, bugun uni dunyo e`tirof etmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi “Baxshichilik va dostonchilik san`atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 304-son Qarori
2. Nasim Ochilov. Xalq eposida zamonaviylik. Qarshi.:2010
3. M. Jo`rayev, J. Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent.: -2017
4. Oxunjon Safarov. O`zbek xalq og`zaki ijodi T.: “Musiqqa” nashriyoti-2010